O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

PIYOZ MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

(FFV-25:2019, IDT)

Rasmiy nashr

O‘zbekiston standartlar instituti

Toshkent

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

So‘zboshi

1 O‘zbekiston standartlar instituti tomonidan ISHLAB CHIQILDI.

2 O‘zbekiston standartlar institutining 2026-yil 18-avgustdagi 30/XSt-26-sonli buyrug‘i bilan TASDIQLANDI.

3 Ushbu standart FFV-25:2019 “Marketing and commercial quality control of onions” xalqaro standartning matni bilan aynan o‘xshash.

4 DASTLABKI AMALGA KIRITILISHI

Ushbu milliy standartni va unga bo‘lgan o‘zgartishlarni O‘zbekiston hududida amalga kiritish, qayta ko‘rib chiqish yoki bekor qilish haqidagi axborot Standartlashtirish bo‘yicha milliy organning rasmiy veb-saytlari va standartlarning yillik axborot ko‘rsatkichlarda chop etiladi.

Ushbu standartni O‘zbekiston hududida rasmiy tarqatish mutlaq huquqi O‘zbekiston standartlar institutiga tegishli

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Izoh

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifat standartlari bo‘yicha ishchi guruh

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa iqtisodiy komissiyasi (UNECE) huzuridagi Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sifati standartlari bo‘yicha ishchi guruh tomonidan ishlab chiqilgan tijorat sifati standartlari xalqaro savdoni yengillashtirish, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirish, rentabellikni oshirish hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. UNECE standartlaridan davlat organlari, ishlab chiqaruvchilar, savdo tashkilotlari, import qiluvchilar va eksport qiluvchilar, shuningdek boshqa xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ushbu standartlar yangi uzilgan meva va sabzavotlar, quruq va quritilgan mahsulotlar, urug‘lik kartoshka, go‘sht, kesilgan gullar, tuxum va tuxum mahsulotlari kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining keng doirasini qamrab oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a’zo bo‘lgan har qanday davlat Ishchi guruh faoliyatida teng huquqli asosda ishtirok etishi mumkin. Qishloq xo‘jaligi standartlari to‘g‘risida qo‘shimcha ma’lumot olish uchun <www.unece.org/trade/agr> veb-saytiga murojaat qiling.

Piyozga oid mazkur standart ECE/CTCS/WP.7/2019/10 hujjati asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, Ishchi guruhning yetmish beshinchi sessiyasida ko‘rib chiqilgan va qabul qilingan.

Standart tuzilmasining namunaviy shakli (2017) bilan muvofiqlashtirilgan.

Ushbu standartni talqin qilish yoki qo‘llashda tushunmovchiliklar sirtga kelganda standartning asli yozilgan tillarining biridan foydalanish tavsiya etiladi.

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON MILLIY STANDARTI

PIYOZ MARKETINGI VA TIJORAT SIFAT NAZORATI

МАРКЕТИНГ И КОНТРОЛЬ КОММЕРЧЕСКОГО КАЧЕСТВА ЛУКА

MARKETING AND COMMERCIAL QUALITY CONTROL OF ONIONS

Amalga kiritish sanasi: 01.09.2026-yil

I. Mahsulot ta’rifi

Ushbu standart iste’molchiga tabiiy holatda yetkazib berish uchun *Allium cepa L. Cepa Group* oilasiga mansub bo‘lgan (madaniylashtirilgan) navlardan yetishtirilgan piyozga nisbatan taalluqli bo‘lib, ko‘k piyoz, quritilgan piyoz va sanoatda qayta ishlash uchun piyoz mustasno.

II. Sifatga oid talablar

Ushbu standartning maqsadi tayyorlash va qadoqlashdan keyingi piyoz sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

Biroq ushbu standart eksportdan keyingi bosqichlarda qo‘llanilsa, mahsulotlar standart talablariga nisbatan quyidagilarni ko‘rsatishi mumkin:

- barra va tarangligining biroz pasayishi;
- rivojlanishi va tez buziluvchanligi natijasida sifatining biroz yomonlashishi.

Mahsulot egasi/sotuvchi ushbu standart talablariga muvofiq bo‘lmagan mahsulotlarni ko‘rgazmaga qo‘yishi, sotuvga taklif qilishi, yetkazib berishi yoki boshqa usulda muomalaga chiqarishi mumkin emas. Mahsulot egasi/sotuvchi mahsulotning ушбу standartga muvofiqligini ta’minlash uchun javobgar hisoblanadi.

A. Minimal talablar

Barcha sinflarda, har bir sinf uchun maxsus qoidalar va ruxsat etilgan me’yorlarni hisobga olgan holda, piyozboshlar quyidagicha bo‘lishi kerak:

- butun; shikastlanmagan;
- yaroqli; iste’molga yaroqsiz holga keltiradigan darajada chirish yoki buzilishga uchragan mahsulotlarga yo‘l qo‘yilmaydi;
- toza, ko‘zga ko‘rinadigan begona moddalardan deyarli xoli;
- sovuq ta’sirida shikastlanmagan;
- mo‘ljallangan maqsadda foydalanish uchun yetarlicha quruq bo‘lishi (piyozni saqlashda, kamida uning dastlabki ikkita tashqi po‘sti va poyasi to‘liq quritilgan bo‘lishi) kerak;
- ichi kovak, poyasi qattiq bo‘lmagan;
- zararkunandalardan deyarli xoli;
- mag‘ziga zarar yetkazadigan zararkunandalar shikastidan holi;
- tashqi yuzasi ortiqcha namlikdan xoli.
- ortiqcha tashqi namlikdan xoli;

Rasmiy nashr

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- begona hid va/yoki ta’mdan xoli bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, poyalar burab uzilgan yoki toza kesilgan bo‘lishi hamda ularning uzunligi 6 cm dan oshmasligi kerak (tizib bog‘langan piyozlar bundan mustasno).

Piyozning rivojlanish darajasi va holati quyidagilarni ta’minlaydigan bo‘lishi kerak:

- tashish va yuklash-tushirish jarayonlariga chidamli bo‘lishi;
- belgilangan manzilga qoniqarli holatda yetib borish.

B. Tasniflash

Piyoz quyida ta’riflanganidek ikki sinfga tasniflanadi:

(i) I sinf

Ushbu sinfdagi piyoz sifatli bo‘lishi kerak. U nav va/yoki tijorat turiga xos xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak.

Piyozboshlar:

- qattiq va zich;
- ildiz tizimidan deyarli xoli bo‘lishi kerak. lekin to‘liq yetilmasdan yig‘ib olingan piyozlardaildiz tizimiining bo‘lishiga ruxsat etiladi.

Mahsulotning umumiy tashqi ko‘rinishi, sifati, saqlanuvchanligi va qadoqdagi ko‘rinishiga ta’sir qilmasligi sharti bilan quyidagi kichik nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- shakldagi kichik nuqson;
- rangdagi kichik nuqsonlar;
- piyozboshi po‘stloq yuzasining beshdan bir qismidan oshmaydigan mayda dog‘larga;
- tashqi etli halqadan chuqur kirib bormaydiga yengil shishasimonlik.

(ii) II sinf

Ushbu sinfga I sinf talablariga javob bermaydigan, biroq yuqorida belgilangan eng kam talablarga muvofiq bo‘lgan piyozlar kiradi.

Piyozboshlar yetarli darajada qattiq bo‘lishi kerak.

Piyozlar sifat, saqlanuvchanlik va qadoqdagi ko‘rinishiga oid asosiy xususiyatlarini saqlab qolishi sharti bilan quyidagi nuqsonlarga yo‘l qo‘yilishi mumkin:

- shakldagi nuqsonlar;
- rangdagi nuqsonlar;
- piyozbosh yuzasining ko‘pi bilan yarmini qoplaydigan dog‘lanish;
- et qismi shikastlanmagan bo‘lishi sharti bilan tashqi po‘stlardagi yoriqlar va piyozbosh yuzasining ko‘pi bilan uchdan bir qismida po‘stning qisman yo‘qligi;
- zararkunandalar yoki kasalliklar ta’siri natijasida hosil bo‘lgan yengil izlar;
- yengil ezilishlar;
- ildiz tizimi;
- shishasimonligi tashqi ikkita go‘shtdor halqadan oshmasligi kerak.

III. O‘lchamlarga oid talablar

O‘lcham ekvatorial kesimning eng katta diametri bo‘yicha aniqlanadi.

Eng kichik diametr 10 mm bo‘lishi kerak.

Bir qadoqdagi mahsulotlar o‘lchamining bir xilligini ta’minlash uchun eng katta va eng kichik piyoz o‘lchamlari o‘rtasidagi farq quyidagilardan oshmasligi kerak:

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

- eng kichik piyozning diametri 10 mm va undan katta, biroq 20 mm dan kichik bo‘lsa — 5 mm. Biroq piyoz diametri 15 mm va undan katta, biroq 25 mm dan kichik bo‘lsa, farq 10 mm bo‘lishi mumkin;

- eng kichik piyozning diametri 20 mm va undan katta, biroq 40 mm dan kichik bo‘lsa — 15 mm;

- eng kichik piyozning diametri 40 mm va undan katta, biroq 70 mm dan kichik bo‘lsa — 20 mm;

- eng kichik piyozning diametri 70 mm yoki undan katta bo‘lsa — 30 mm.

IV. Ruxsat etilgan chetlanishlarga oid qoidalar

Savdoning barcha bosqichlarida, har bir to‘pda belgilangan sinf talablariga mos kelmaydigan mahsulotlar uchun sifat va o‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan me’yorlar qo‘llaniladi.

A. Sifat bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

(i) I sinf

Ushbu nav talablariga javob bermaydigan, lekin II sinf talablariga mos keladigan piyozlar uchun, soni yoki og‘irligi bo‘yicha, umumiy hisobda 10 foizlik chetga chiqishga ruxsat etiladi. Ushbu ruxsat etilgan chegara doirasida mahsulot umumiy miqdorining1 foizdan ortiq bo‘lmagan qismi II sinf sifat talablariga ham, eng kam talablarga ham javob bermaydigan yoxud chirishdan zararlangan mahsulotlardan tashkil topishi mumkin. Ruxsat etilgan 1 foizlik chegara doirasida novdalarning tashqaridan ko‘rinib turadigan o‘sishi uzunlik bo‘yicha 1 cm dan oshmasligi lozim.

(ii) II sinf

Soni yoki og‘irligi bo‘yicha nav talablariga ham, minimal talablarga ham javob bermaydigan piyozlar uchun umumiy miqdorning 10 foizi hajmida chetga chiqishga yo‘l qo‘yiladi. Ushbu ruxsat etilgan me’yor doirasida jami miqdorning 2 foizidan ortig‘i yumshoq piyoz yoki chirishdan zararlangan mahsulotlardan iborat bo‘lishi mumkin emas.

Bundan tashqari, tashqi tomondan ko‘rinib turgan novda o‘sishi kuzatilgan qattiq piyozlar uchun miqdori yoki og‘irligi bo‘yicha 10 foizlik istisnoga yo‘l qo‘yiladi.

B. O‘lcham bo‘yicha ruxsat etilgan chetlanishlar

Barcha sinflar uchun o‘lchamlarga oid talablarga javob bermaydigan piyozlarning soni yoki massasi bo‘yicha jami 10 % gacha chetlanishga yo‘l qo‘yiladi.

V. Taqdim etishga oid talablar

A. Bir xillik

Har bir qadoqning (yoki transport vositasida to‘kma holda taqdim etilgan mahsulotlar to‘plamining) ichidagilar bir xil bo‘lishi hamda faqatgina kelib chiqishi, navi yoki tijoriy turi, sifati va hajmi bir xil bo‘lgan piyozni o‘z ichiga olishi kerak.

Biroq, bir-biridan yaqqol farq qiluvchi tijorat turlari va/yoki ranglardagi piyozlar aralashmasini bitta sotuv qadog‘iga joylash mumkin, agar ular sifati bir xil va har bir tegishli tijorat turi va/yoki rangi bo‘yicha bir mamlakatda yetishtirilgan bo‘lsa. Biroq, bu aralashmalar uchun o‘lchamlarning bir xilligi talab etilmaydi.

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Qadoq ichidagilarning ko‘rinib turgan qismi (yoki transport vositasida to‘kma holida taqdim etilgan mahsulotlar to‘pi) butun tarkibga mos bo‘lishi kerak.

B. Qadoqlash

Piyoz mahsulotni tegishli darajada himoya qiladigan usulda qadoqlanishi kerak.

Qadoq ichida ishlatiladigan materiallar toza va mahsulotga tashqi yoki ichki shikast yetkazmaydigan sifatga ega bo‘lishi kerak. Savdoga oid ma’lumotlar tushirilgan materiallardan, xususan, qog‘oz yoki tamg‘alardan foydalanishga, bosma yozuvlar yoki yorliqlar zaharli bo‘lmagan bo‘yoq yoki yelim yordamida tushirilgan bo‘lishi sharti bilan yo‘l qo‘yiladi.

Mahsulotga alohida yopishtirilgan stikerlar olib tashlanganda ko‘zga ko‘rinadigan yelim izlarini qoldirmasligi va po‘stda nuqsonlar paydo bo‘lishiga olib kelmasligi kerak.

Qadoqlar (yoki transport vositasida to‘kma taqdim etilgan mahsulot to‘plari) har qanday begona moddalardan holi bo‘lishi kerak.

VI. Tamg‘alashga oid talablar

Har bir qadoqda[1] quyidagi ma’lumotlar bir tomonda guruhlangan, aniq o‘qiladigan, o‘chmaydigan va tashqaridan ko‘rinadigan harflar bilan ko‘rsatilishi kerak.

Uyma holda tashiladigan, ya’ni bevosita transport vositasiga yuklanadigan piyozlar uchun ushbu ma’lumotlar tovarga ilova qilinadigan hujjatda keltirilishi va transport vositasi ichidagi ko‘rinadigan joyga biriktirilishi kerak.

A. Identifikatsiya qilish

Qadoqlovchi va/yoki jo‘natuvchi/eksport qiluvchi:

Nomi va haqiqiy manzili, masalan, ko‘cha, shahar, hudud, pochta indeksi va, agar u kelib chiqish mamlakatidan farq qilsa, mamlakat nomi; yoki bunday tizimni qo‘llaydigan mamlakat UNECE ma’lumotlar bazasiga kiritilgan bo‘lsa, milliy vakolatli organ tomonidan rasman tan olingan kod belgisi[2].

B. Mahsulotning xususiyati

Agar qadoq tarkibi tashqaridan ko‘rinmasa, "Piyoz" deb yozib qo‘yilsin.

Tijoriy turi va/yoki ranglari bir-biridan yaqqol farq qiladigan piyozlar aralashmasi uchun “Piyoz aralashmasi” yoki shunga teng boshqa nom belgilanadi. Agar mahsulot tashqaridan ko‘rinmasa, tovar turlari va/yoki ranglari va qadoqdagi har birining miqdori ko‘rsatilishi kerak.

C. Mahsulotning kelib chiqishi

Kelib chiqish mamlakati[3] va ixtiyoriy ravishda yetishtirilgan tuman, milliy, mintaqaviy yoki mahalliy joy nomi.

---

[1] Tamg‘alashga oid ushbu talablar qadoqlarda joylashtirilgan iste’mol qadoqlariga nisbatan qo‘llanilmaydi. Biroq ular alohida taqdim etiladigan iste’mol qadoqlariga (oldindan qadoqlangan mahsulotlarga) nisbatan qo‘llaniladi.

[2] Bir qator mamlakatlarning milliy qonunchiligi nom va manzilni aniq e’lon qilishni talab qiladi. Biroq, kod belgisidan foydalanilgan taqdirda, "qadoqlovchi va/yoki dispetcher (yoki ekvivalent qisqartmalar) " havolasi kod belgisi bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilishi kerak va kod belgisidan oldin, agar kelib chiqish mamlakati bo‘lmasa, tan oluvchi mamlakatning ISO 3166 (alfa) mamlakat/hudud kodi ko‘rsatilishi lozim.

[3] To‘liq yoki ko‘p qo‘llaniladigan nom ko‘rsatilishi kerak.

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI

Kelib chiqish mamlakatlari turlicha bo‘lgan, tijorat turlari va/yoki ranglari aniq farqlanadigan piyozlar aralashmasi mavjud bo‘lganda, har bir kelib chiqish mamlakati tegishli tijorat turi va/yoki rangi nomi bilan bir qatorda ko‘rsatilishi kerak.

D. Tijorat tavsiflari

- Sinfi;
- Eng kichik va eng katta diametrlar bilan ifodalangan o‘lchami.

E. Rasmiy nazorat belgisi (ixtiyoriy)

1961-yilda qabul qilingan.

Oxirgi marta 2019-yilda qayta ko‘rib chiqilgan.

2017-yildagi standartning namunaviy tuzilmasi bilan muvofiqlashtirilgan.

Meva va sabzavotlarga oid xalqaro standartlarni qo‘llash bo‘yicha OECD sxemasi ushbu standartni qo‘llash yuzasidan tasvirlar bilan izohlangan risolani nashr etgan. Mazkur nashrni OECD kitob do‘konidan quyidagi manzil orqali olish mumkin: www.oecdbookshop.org.

STANDARTLAR INSTITUTI #7LPKF8SH9X - 25.09.2026 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI